



Tasavvufda Ahmad Yassaviyning tutgan o'рни

**Shokirova Muxlisa
Umidjonovna**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvufning ulkan namoyondasi va ayni shu ilm rivojida o'z hissasini qo'shgan mutasavvif, shayx va shoir Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy me'rosi, tarixdagi o'рни chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotda Yassaviyning hayoti, u shakllantirgan "Yassaviya" tariqati, uning asosiy g'oyalari va tasavvufiy yondashuvi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, shayxning Turkistonda olib borib, islom ta'limotini xalqona, sodda va tushunarli tilda ommalashtirgani; ayniqsa, turkiy xalqlar orasida islom – ma'rifatning mustahkamlanishida ulkan rol o'ynagani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: "Yassaviya", shariat, tasavvufiy yondashuv, ma'rifat, ruhiy kamolot, tafakkur, qalb pokligi, tariqat.

Annotation: The article provides an in-depth analysis of the place in history of the spiritual heritage of Khoja Ahmad Yassawi, great contributor to the development of this science. The study covers the life of Yassawi, the "Yassawiyya" order he formed, his main ideas and mystical approach based on scientific sources. It also emphasizes that the sheikh, while working in Turkestan, popularized Islamic teachings in a folk, simple and understandable language; especially, he played a huge role in strengthening Islamic enlightenment among the Turkic people.

Keywords: "Yassawiyya", mystical approach, purity of heart, sharia, enlightenment, spiritual maturity, thinking.

Аннотация: В статье глубоко анализируется место в истории духовного наследия великого представителя суфизма мистика и шейха Ходжи Ахмада Яссави, внесшего вклад в развитие этой науки. Исследование охватит жизнь Яссави, основанный или орден "Яссавия", его основные идеи и его суфизмический подход, основанный на научных источниках. Подчеркивается также, что шейх, работая в Туркестане, популяризовал исламское учение на доступном, простом и понятном языке, сыграл огромную роль в укреплении исламского просвещения, особенно среди Тюркских народов.

Ключевые слова: "Яссавия", суфизмический подход, шариат, просветление, духовная зрелость, мышление, чистота сердца.

Asosiy qism: Tasavvuf adabiyotida Xoja Ahmad Yassaviy siymosi, uning ijodi, xususan, murid va izdoshlari tomonidan tuzilgan “Devoni hikmat” asari alohida o‘ringan ega. Ma’lumki, asarda Oллоhga bo‘lgan ilohiy ishq va oshiqlik, tasavvufning bosqichlari, hayotning mohiyati, ma’rifat va oriflik saodati kabi qarashlar xalqchil, samimiy ruhda ifodalanadi. Yeng muhimi asarning ma’rifiy ahamiyati: hikmat va axloqiy qarashlarni uyg‘unlashtira olgani bilan ahamiyatlidir.

Ahmad Yassaviy XI asrda Sayramda tavallud topgan. Shayx yoshligida onalaridan, yetti yoshga to‘lganlarida esa otalaridan yetim qoladi, biroq Alloh sevgan bandasini sinovlar orqali toblab, boshqa bandalaridan yuqoriga olib chiqib quyadi. Ya’ni, Yassaviy bobosi qo‘lida tarbiya topadi va keyinchalik Yassida o‘qiydi, so‘ngra islom markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroda ilohiy ilmlarni chuqur tasavvuf, diniy ahkomlar, ishq ahli va “Vahdat ul – vujud” ta’limotining mohiyatini, ruhiy kamolotga qanday erishish mumkinligi to‘g‘risida tafakkur qila boshlaydi bu esa biz ta’riflayotgan tasavvufning 4 bosqichidan asta-sekin harakatlanayotgan “solik”-yo‘lovchi bo‘lganligini ko‘rsatib beradi. Aslida tasavvuf, so‘fiylik – islomda insonni ruhiy taraflama komillikka yetaklovchi ta’limot hisoblangan va Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida ham tasavvuf so‘zining mohiyati “suvf”-“jun”, “po‘stin” so‘zidan olinganligi haqida bir qancha fikrlar keltiriladi, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to‘qilgan kiyim yoki po‘stin kiyib yurishgan. Boshqa izohlarda esa bu so‘zning ildizi arabcha “poklik” degan ma’noni anglatuvchi “safha” so‘zidan olingan bo‘lishi mumkin degan qarashlar uchraydi. “Tazkiya” esa “o‘z-o‘zini tozalash”, ya’ni qalbni poklash, nafsni bo‘ysundirish, dunyo ne‘matlaridan uzoqda bo‘lish va umrni Alloh yo‘lida ibodatda o‘tkazishga bag‘ishlash kabi ma’nolarni anglatadi. Yassaviy ham tasavvufning ayni shu sohalarini bolalikdan o‘rganib, yosh va pok qalbiga jo qilganligi hech kimga sir emas. Misol uchun, Alisher Navoiy shayxni “Turkiston ahlining qiblayi duosi” deb ulug‘lagani u kishining yoshligidan ilm olishga chanqoqligi hamda eng asosiysi Buxoro madrasasidagi mudarrisi bo‘lmish shayx ul-islom va barcha musulmonlar uchun tasavvuf gulshani bog‘boni bo‘lmish Yusuf Hamadoniyni mehnati ham singgan edi. So‘ngra ayni o‘rganganlari asnosida “Yassaviya” tariqatiga asos soldi va necha asrlardan beri barchaga birdek manzur bo‘lgan “Devoni hikmat” asari orqali juda ko‘p ilohiy ilmlarni o‘rganishimiz mumkin.

Tasavvufiy hikmatlar badiiyati: “Devoni hikmat”da Yassaviyning ruhni poklashga va va nafsni tarbiyalashga undovchi shunday so‘zlari keltirilgan: “Toki sha‘m kabi yonib, ado bo‘lmasang, pok ishqdan so‘z ochma”. Bu hikmatlar orqali Pir Ahmad chin oshiq nafs uchun sevgan emas, balki ilohiy ishqdan mast bo‘lgan oshiqning qay darajada azob chekib, qanchadan-qancha sinovlardan kechib, yori, ya’ni Alloh oldiga ruhan pok holda borishni o‘zi uchun maqsad qilib olishi lozimligini uqtiradi va dunyo lazzatlariga ko‘ngil bermaslikni, bularning bari nafsning xohishi ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. Ana shundagina banda va Alloh o‘rtasida chin, ilohiy muhabbat - “Vahdat ul-vujud”ni to‘laqonli his qila olish imkoniyati, ibodatlardan zavq olish hissi orta borishi mumkinligi haqida tushuntiradi. “Shariat – zohirda a’zolar bilan amal qilish, tariqat – qalb bilan amal qilish, haqiqat esa sir, ya’ni qalbdagi javhar bilan amal qilishdir” deya ma’lumot beradi. Chindan ham Yassaviyning yondashuvi boshqa ulamolarnikidan farqli, dunyodagi barcha ne‘matlarning borligiga qanoat etish va dunyodagi barcha yomonliklardan uzulish edi.

Tarixiy asoslar: Yassaviyning hayotiy faoliyatining bizgacha yetib kelishiga sababchi Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi", Faxruddin Ali Safiyning "Rashahot", Ahmad Hazniyning "Javohir ul-abror" asarlarining o'rni beqiyosdir. "Yassaviya" tariqatining shakllanishidan boshlab barcha mutasavvif olimlarning ijodi haqida sermazmun qalam tebratgan Muhammad Kuprulizodaning "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" asarida ham barcha yozuvchilar haqida fikrlar keltirilgan. Yetuk mutasavvif olim Yassaviy 63 yoshga yetgach yer ostiga kirgan holda, yolg'iz Alloh yo'lida toat-ibodat qilib, dunyodan uzoqda yashashga harakat qilib yashaydi. Shunday qilib islom olamining mashoyixi bo'lgan Yassaviy dunyoni tark etadi

"Yassaviya" tariqatining hozirgi davrdagi ahamiyati: Xoja Ahmad Yassaviyning asarlarida nafaqat o'tmish davrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot manzaralari, balki bugungi kunda biz "globalashuv" deb atayotgan niqob ostidagi yevropalashishning oldini olish, yosh bolalarga esa diniy va dunyoviy ilmlarni teng o'rganishga ishtiyoq toppish, hatto rivojlanib borayotgan bu davrimizda oat-ibodatlarda bardavom bo'lishga undash usullarini o'zimiz uchun hikmatlarni o'qigan va albatta, amal qilgan holda qayta kashf etishimiz mumkin. Demakki, hatto har bir satridan bir-biriga betakror ma'nolarni uqib olishimiz va ruhiy barkamollikka intilish hamda oxir-oqibat birdan-bir dushmanimiz nafsimizni yengishimiz va qalbni poklash orqali botiniy go'zallikni anglab yetish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Qalbingda Alloh bor, Allohga chekin", "Uzlatga chekinmoq – o'z-o'zingga chekinmoqdir, avval botinni anglamoq, tarbiyalamoq darkor, bu esa nafsni tarbiyalashdan boshlanadi" – deya bot-bot takrorlagan holda har bir insonni botiniy yetuk bo'lishga va asosan, nafsni poklashga juda katta urg'u qaratadi. Shu asosda qalb va ruhiy poklikka erishgan bu zotning asarlaridan joy olgan minglab durdonalar tasavvuf ilmining yanada rivoj topishiga yordam bergan. "Yassaviya" tariqatining Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Ozarbayjon va Anadolu hududlarida keng tarqalgani va bu tariqatdan ko'plab avliyolar yetishib chiqqanini tarixiy manbalar asosida ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, o'tmish davrlari ijodkorlar uchun diniy ilmlarni o'rganishga va targ'ib qilishga bo'lgan his juda kuchli bo'lgan va aynan ularning ijodi orqali barchamiz saxovatlilik, halollik, to'g'rilik, ibodatlarda davomiylik, asosiysi, yuqoridagilarning barchasini chin ixlos bilan hamda to'g'ri niyat bilan bajarish kerakliligiga juda ko'p bora urg'u qaratadi. Bularning barini Yassaviy bir asarda yig'a olganligining o'zidayoq uning ruhiy va aqliy salohiyatiga Tahsin o'qishimiz biz uchun farz aslida. Namuna sifatida esa shayxning ushbu to'rtligini tahlil qilish mumkin:

*"Xudovando, meni solg'il o'z yo'lingg'o,
Nafs ilgida xarob,ado bo'ldum ma'no,
Fisq-u fujur to'lib-toshib,haddin oshdi,
G'arqob bo'lib, isyon ichra qoldim ma'no".*

Yassaviy "xudo yo'li" ni – "nafs ilgi" dan qutulmoq dunyodagi barcha yomonliklarni tugatish yo'lini axtaradi. Shu ma'noda kelgan "harom yegan hokimlar", "oqni qaro qilg'on", "nohaq da'vo qilg'on"larga qarshi kurashishni hamda faqat va faqat ma'rifat orqali yechim toppish mumkinligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Juzjoni . Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001.
2. Hamidjon Homidiy . Tasavvuf allomalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Hamidjon Homidiy . Tasavvuf Qaraniydan Rushdiygacha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Ahmad Yassaviy . Devoni hikmat(yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
5. Najmiddin Komilov . Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.